

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI.....	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

THE EXECUTIVE BODY WITHIN THE GOVERNANCE STRUCTURE OF BUSINESS COMPANIES: THE CASE OF RUSSIAN FEDERATION

Ibrokhimov Azimjon Abdumumin o'gli

Senior Lecturer at the Department of Civil Law
of Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines the system of management bodies of business companies. It analyzes the distinctions between mandatory and optional bodies, the procedure for their establishment, and the legal significance of their regulation in the company's charter. Particular attention is paid to the mandatory establishment of the general meeting, the sole executive body, and the board of directors in public joint-stock companies, as well as to the optional nature of the collegial executive body and the audit commission, their formation procedure, and dependence on the decisions of the participants.

The article also analyzes the relevant provisions of Russian legislation, including the laws on joint-stock companies and limited liability companies, highlighting the powers of corporate governance bodies, the procedure for decision-making, and their accountability. Special emphasis is placed on the voting mechanisms used by collegial bodies in the decision-making process, quorum requirements, the strategic role of the board of directors in governance, and the role of the sole executive body in managing day-to-day operations. Based on this, the article evaluates the place and role of the executive body within the system of corporate governance of business companies.

Keywords: corporate management body, executive body, general meeting, board of directors, collegial executive body, organic theory, representation theory, corporate governance, business companies, corporate control, management and representation functions, mandatory and optional bodies.

XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA

Ibrohimov Azimjon

Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada xo'jalik jamiyatlari boshqaruv organlari tizimi yoritiladi. Bunda majburiy va fakultativ organlar o'rtasidagi farqlar, ularning tashkil etilish tartibi hamda jamiyat ustavida belgilanishining huquqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Ayniqsa, umumiy yig'ilish, yakka ijro organi va ochiq aksiyadorlik jamiyatidagi direktorlar kengashining majburiy ravishda tuzilishi, shuningdek, kollegial ijro organi va taftish komissiyasining fakultativ xarakteri, ularni tashkil etish tartibi va ishtirokchilar qaroriga bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi.

Maqolada Rossiya Federatsiyasi tajribasi asosida tegishli normalar, aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risidagi qonunlar tahlil qilinib, korporativ boshqaruv organlarining vakolatlari, qaror qabul qilish tartibi va hisobdorligi masalalari yoritilgan. Xususan, kollegial organlarning qaror qabul qilishda qo'llaniladigan ovoz berish mexanizmlari, kvorum talablari, direktorlar kengashining strategik boshqaruvdagi ahamiyati hamda yakka ijro organining joriy faoliyatni boshqarishdagi roli alohida o'rin tutadi. Shu asosda maqolada xo'jalik jamiyatlari ijro organining boshqaruv organlari tizimidagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yuridik shaxs boshqaruv organi, ijro organi, umumiy yig'ilish, direktorlar kengashi, kollegial ijro organi, organik nazariya, vakillik nazariyasi, korporativ boshqaruv, xo'jalik jamiyatlari, korporativ nazorat, boshqaruv va vakillik funksiyalari, majburiy va fakultativ organlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N42>

Kirish. Yuridik shaxs organlari mustaqil huquq subyekti emas, balki yuridik shaxsning huquq layoqatini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Amaldagi qonunchilik hamda ko'plab olimlar va mutaxassislar yuridik shaxs organini uning xohish-irodasini shakllantiradigan (yoki ifoda etadigan) tarkibiy bo'g'in sifatida e'tirof etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shuni ham ta'kidlash kerakki, XIX asr oxirlaridan hozirgi kungacha doktrinada yuridik shaxs organlarining huquqiy tabiati haqida (ularni yuridik shaxsning tarkibiy qismi yoki o'ziga xos vakillari deb qarash masalasida) bahslar davom etib kelmoqda. Vakillik nazariyasi tarafdorlari o'z qarashlarining keskinligi bilan ajralib turadi. Ba'zilar barcha organlarni yuridik shaxs vakillari deb bilsa, boshqalar faqat yakka ijro organini ishonchnoma emas, balki bevosita qonun asosida yuridik shaxs nomidan ish yuritadigan vakil sifatida ko'rish lozimligini ta'kidlaydi. Direktorni alohida turdagi vakil sifatida e'tirof etuvchi yondashuv Rossiya Oliy Sud Plenumining 25-sonli qarorida ham o'z aksini topgan. Unda qayd etilishicha, yuridik shaxs o'z organlari orqali huquqlarni qo'lga kiritishi va majburiyatlarni zimmasiga olishini hisobga olib, avvalo yuridik shaxs faoliyatiga oid qonun normalari, so'ngra esa yuridik shaxs organlariga nisbatan Fuqarolik kodeksining vakillikka oid (10-bob) faqat ayrim qoidalari tatbiq etiladi. A. Kuznetsov bunday yondashuvni rus huquqida yarim asrdan ortiq davom etgan organik nazariya mistikasi davriga qaytishga urinishning oldini oluvchi omil sifatida baholaydi[1].

Muhokama. Bizning fikrimizcha, organik nazariyada qonunchilik va huquqshunoslarga ta'sir ko'rsatgan o'ziga xos mistik unsurlar mavjud. Avvalo, yuridik shaxsning organik nazariyasiga tayanish huquq tizimining eskirgan an'anasi hisoblanadi. Huquqning konservativligi sababli alohida tarmoqlar instituti bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Masalan, 2014-yilda RF Fuqarolik kodeksining 53-moddasiga kiritilgan va oradan ko'p o'tmay bekor qilingan 182-moddasi 1-qismiga havolani nazarda tutuvchi o'zgarish murakkab masalalarni yuzaga keltirdi. Jumladan, bir shaxs bir vaqtning o'zida bir nechta yuridik shaxs (holdinglar tarkibidagi kompaniyalar) direktori bo'lgan holatda ular o'rtasida tuziladigan bitimlarga tijorat vakilligi bo'yicha taqiq (FK 184-modda) tatbiq etildi. Garchi bunday vaziyatlarda manfaatlar to'qnashuvi ilgari maxsus huquqiy rejim – manfaatdor bitimlar institutlari orqali tartibga solinib kelgan edi. Shuningdek, FKning 186-moddasiga muvofiq, agar ishonchnomada amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, u bir yil davomida amal qiladi. Shu sababli, vakolat muddati aniq belgilanmagan holda tayinlangan (saylangan) direktorlarning vakolatlari amalda tugab qolishi xavfi yuzaga keladi. Albatta, bunday vaziyatlarda qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritish yoki sud tomonidan huquqni talqin qilish yo'li bilan yechim topish mumkinligi haqida e'tirozlar bildirilishi mumkin.

Shu o'rinda savol tug'iladi: agar ko'rsatilgan masalalar amaldagi qonunchilik doirasida allaqachon hal qilingan bo'lsa, nega eskirgan tizimni keskin shaklda qayta joriy etish kerak? Vakillik nazariyasi tarafdorlari taklif qilayotgan yondashuv – ya'ni direktor ishonchnoma asosida emas, balki uni tayinlash (saylash) haqidagi qarorga binoan vakil sifatida ish yuritadi, degan fikr – amaldagi tartibdan deyarli farq qilmaydi.

O. Gutnikov ta'kidlaganidek, fuqarolik huquqidagi "yuridik shaxs organi uning vakili yoki uning tarkibiy qismi hisoblanishi" masalasiga oid eskirgan bahsdan foyda yo'q. Chunki yuridik shaxsning istalgan organi aslida o'z vakolat va funksiyalarini qonun asosida belgilangan tartibda tayinlangan shaxslar orqali amalga oshiradi. Ya'ni, "yuridik shaxs organi" atamasi mohiyatan faqatgina huquqiy-texnik qulaylik uchun qo'llanadi. Aslida esa, korporativ

munosabatlarda ma'lum funksiyalarni bajaradigan, tegishli vakolat va huquqlarga ega bo'lgan shaxslar ishtirok etadi. Ular bu funksiyalarni (ichki va tashqi korporativ munosabatlarda) bajarish orqali o'z xohish-irodasini ifodalaydi va bu xohish-iroda qonun bo'yicha yuridik shaxs va uning organlarining xohish-irodasi sifatida tan olinadi[2].

Rus qonunchiligi yuridik shaxsning organik nazariyasiga asoslanadi. Shu bois RF Fuqarolik kodeksining 53-moddasi 1-qismida yuridik shaxs qonun, boshqa huquqiy hujjatlar va ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda o'z organlari orqali fuqarolik huquqlarini qo'lga kiritishi va majburiyatlarni zimmasiga olishi belgilangan. Sud amaliyoti ham ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, bir sud ishida direktor umumiy yig'ilishda ishonchnoma asosida ish olib borishi kerakligi haqidagi qaror qonunga zid deb topilgan[3].

D. Meyer XIX asrdayoq ta'kidlaganidek, yuridik shaxsning organlari uning nomidan harakat qiladi va ularning faoliyati yuridik shaxsning harakatlari sifatida tan olinadi. Ya'ni, qonunchilik yuridik shaxs mavjudligini e'tirof etar ekan, uning faoliyatini amalga oshiradigan organlarni ham belgilab beradi[4].

Muayyan funksiyalarni bajaradigan boshqaruv organlari tizimining mavjudligi yuridik shaxsning tashkiliy birlik sifatidagi asosiy belgilaridan biridir. B. Cherepaxinning ta'kidlashicha, inson ishtirokisiz hech bir yuridik shaxs na mavjud bo'lishi, na faoliyat yuritishi mumkin. Darhaqiqat, yuridik shaxs o'z xohish-irodasini faqat organlari orqali ifodalay oladi. Shu bois yuridik shaxs organining huquqiy tabiati nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega: chunki yuridik shaxs nomidan organlari tomonidan tuzilgan bitimlarga vakillik haqidagi qoidalar tatbiq etilmaydi[5]. RF Oliy sud Plenumining 25-sonli qarorida ko'rsatilishicha, RF FKning 182-moddasi 1-qismidagi qoidalar yuridik shaxs organi o'z vakolatlarini ta'sis hujjatlari yoki boshqa tartibga soluvchi hujjatlarda belgilangan doiradan chiqib amalga oshirgan bitimlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bunday bitimlar RF FKning 174-moddasi 1-qismiga asosan haqiqiy emas deb topilishi mumkin (112-bet).

Doktrinada yuridik shaxs organlari nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda organlarning asosiy belgilariga e'tibor qaratiladi:

yuridik shaxs organi – yuridik shaxsning tarkibiy qismi bo'lib, bir yoki bir nechta jismoniy shaxslardan iborat bo'ladi;

organ qonunchilik yoki ta'sis hujjatlariga muvofiq shakllantiriladi;

organ o'z kompetensiyasi doirasida aniq vakolatlarga ega bo'ladi;

yuridik shaxsning xohish-irodasi uning organlari tomonidan maxsus aktlarni qabul qilish orqali shakllantiriladi va ifodalanadi.

Natijalar. Xo'jalik jamiyatlarining boshqaruv organlari tarkibiga quyidagilar kiradi: ishtirokchilar umumiy yig'ilishi; kollegial boshqaruv organi (masalan, kuzatuv kengashi yoki boshqa kengash); yakka ijro organi (direktor, bosh direktor, shuningdek, MCHJ to'g'risidagi Qonunning 40-moddasi 1-qismiga muvofiq prezident va boshqa shaxslar); hamda kollegial ijro organi (boshqaruv, direksiya). Taftish komissiya esa qo'shimcha nazorat organi hisoblanadi. Yopiq jamiyatlarda ishtirokchilar umumiy yig'ilishi va yakka ijro organining mavjudligi majburiy hisoblanadi, qolgan boshqaruv organlari esa ixtiyoriy ravishda tuzilishi mumkin. Ochiq jamiyatlarda esa tarkibida kamida 5 nafar a'zodan iborat direktorlar kengashining tashkil etilishi shart. Yopiq jamiyatlar bir ovozdan qabul qilingan qaror asosida taftish komissiyasini tuzmaslikka haqli yoki ustavda ko'rsatilgan ayrim hollarda uni tashkil etishni nazarda tutishi mumkin (RF FKning 66.3-moddasi 3-qismi, 4-band). Ochiq jamiyatlarda esa

taftish komissiyasi ustavda belgilangan hollarda tuziladi (Ochiq jamiyat to'g'risidagi qonunning 85-moddasi, 1-qism)[6].

Adabiyotlarda 'korporativ boshqaruv modeli' deb nomlanadigan xo'jalik jamiyatlari organlarining tizimi va tarkibi bir qator omillar bilan belgilanadi. Bular jumlasiga jamiyatning ochiq yoki yopiq shaklda tashkil etilgani, uning faoliyat sohasi, biznes yuritishdagi xususiyatlari, aksiyadorlar (ishtirokchilar) tarkibi, korporativ nazoratni taqsimlash mexanizmlari, korporativ boshqaruv amaliyotida shakllangan odatlar hamda boshqa sharoitlar kiradi.

Ilmiy adabiyotlarda yuridik shaxslar, jumladan xo'jalik jamiyatlari organlarining turli mezonlarga asoslangan tasniflari uchraydi[7].

Yuridik shaxs organlari shakllantirish tartibiga ko'ra tayinlanadigan, saylanadigan yoki boshqa shaklda tuziladigan organlarga bo'linadi. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 53-moddasi 1-qismida ularni tuzish tartibi qonunchilik va ta'sis hujjatlarida belgilanishi ko'zda tutilgan. Amalda organlarni shakllantirish ko'pincha tayinlash yoki saylash yo'li bilan amalga oshiriladi. Tayinlash jarayonida muayyan organ yoki mansabdor shaxs boshqa shaxsni lavozimga qo'yadi va bunda muqobil nomzodlar bo'lmaydi. Saylash esa bir nechta taklif etilgan shaxslar orasidan tanlab olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Saylanadigan organlarga aksiyadorlik jamiyatlarida direktorlar kengashi va taftish komissiyasi, shuningdek, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda yakka yoki kollegial ijro organlari kiradi. Ayrim hollarda qonunchilikda "organlarni tuzish" termini qo'llanadi. Masalan, aksiyadorlik jamiyatlarining ijro organlariga nisbatan yoki MChJ direktorlar kengashiga nisbatan ushbu termin ishlatiladi. Shu bois, "tuzish" tushunchasi "saylash" va "tayinlash"ni qamrab oluvchi umumiy kategoriya sifatida qaraladi. Jamiyat organlarini tuzish tartibi — saylashmi yoki tayinlashmi — jamiyat ustavida alohida ko'rsatilishi lozim.

Tarkibiga ko'ra organlar yakka va kollegial turlarga bo'linadi. Kollegial organ qonunchilik yoki ustav asosida shakllantiriladigan shaxslar guruhi bo'lib, ular o'z vakolatlari doirasida qarorlarni birgalikda qabul qilish orqali boshqaruvni amalga oshiradilar. Bu organlarning asosiy belgisi shundan iboratki, tarkibida kamida ikki shaxs bo'lishi talab etiladi va qarorlar, odatda, muhokama va ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 181.2-moddasiga muvofiq, umumiy yig'ilish qarorlari, agar unda ishtirokchilarning kamida yarmi qatnashgan va qaror ko'pchilik ovozi bilan ma'qullangan bo'lsa, qabul qilingan hisoblanadi. 181.1-moddada esa yig'ilish qarorlarini qabul qilish tartibi bo'yicha umumiy qoidalar mustahkamlangan bo'lib, ular maxsus qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan taqdirda qo'llanadi. Shu sababli yig'ilishning kvorumi va qaror qabul qilish tartibini aniqlashda, avvalo, yuridik shaxsning tegishli tashkiliy-huquqiy shaklini tartibga soluvchi maxsus qonunchilikka murojaat etish lozim bo'ladi.

Kollegial organlar tomonidan qaror qabul qilish tartibi – oddiy yoki malakali ko'pchilik ovoz asosida – avvalo dispozitiv xususiyatga ega qonunchilik normalariga muvofiq jamiyat ustavida belgilanadi. Umumiy yig'ilishlarda qaror qabul qilishda ishtirokchilar yoki aksiyadorlar odatda ustav kapitalidagi ulushlariga mutanosib ovoz huquqiga ega bo'ladilar. Boshqaruvning kollegial organlari – direktorlar kengashi yoki kollegial ijro organi a'zolari esa qoida bo'yicha bittadan ovozga ega bo'ladi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunda maxsus qoida mavjud: agar direktorlar kengashida ovozlar teng bo'lib qolsa, hal

qiluvchi ovoz kengash raisiga tegishli bo'lishi mumkin. Analogiya asosida bunday qoidani mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning ustavida ham nazarda tutish mumkin.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksiga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi 99-sonli qonunning kuchga kirishi bilan jamiyatlarda yakka ijro organi bittadan ortiq bo'lishi mumkinligi belgilandi. Bu ikki shaklda namoyon bo'ladi: birinchi holatda vakolatlar birgalikda ish olib boradigan bir nechta shaxslarga berilishi mumkin, ikkinchi holatda esa o'zaro mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi bir necha ijro organlari tashkil etilishi mumkin. Ikkinchi model tashqi ko'rinishidan kollegial ijro organiga o'xshash bo'lsa-da, mohiyatan farq qiladi: ularning faoliyati qarorlarni ovoz berish orqali birgalikda qabul qilishga asoslanmagan, balki har bir organ o'z funksiyasini mustaqil amalga oshiradi. Shu sababli "yakka" va "kollegial" ijro organlari o'rtasidagi klassifikatsiya o'z dolzarbligini to'liq saqlab qoladi.

Yuridik shaxs organlari o'z funksiyalari mazmuniga ko'ra boshqaruv va nazorat organlariga ajratiladi. Boshqaruv organlariga jamiyat ishtirokchilarining (aksiyadorlarining) umumiy yig'ilishi bilan birga jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi direktorlar kengashi kiradi. Direktorlar kengashining umumiy rahbarlik vakolati aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunning 64-moddasi 1-qismida belgilangan bo'lib, unga jamiyatning ustuvor faoliyat yo'nalishlarini aniqlash va boshqa strategik ahamiyatga ega masalalarni hal qilish vakolatlari kiritilgan. Bundan tashqari, rus huquqi tizimida direktorlar kengashiga korporativ nazorat funksiyasi ham yuklatilgan bo'lib, u aksiyadorlik nazoratini amalga oshirish mexanizmi sifatida ko'riladi[8].

Ijro organlari – yakka yoki kollegial shaklda – jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi va ular jamiyatning oliy organi bo'lgan umumiy yig'ilish hamda direktorlar kengashiga hisobdor hisoblanadi. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish esa taftish komissiyasi yoki yakka taftishchi orqali amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs xohish-irodasini shakllantirish jarayonidagi o'rniga ko'ra organlar xohish-irodani shakllantiruvchi va uni ifoda etuvchi organlarga ajratiladi. B. Cherepaxin ta'kidlaganidek, yuridik shaxs xohish-irodasini shakllantirish va uni tashqi munosabatlarda ifoda etish jarayonida ikki turdagi organlarni farqlash zarur: birinchisi, xohish-irodani shakllantirib uni tashqi munosabatlarda ham ifoda etuvchi organlar (masalan, boshqaruv organlari yoki rais), ikkinchisi esa, faqat xohish-irodani shakllantiruvchi, biroq tashqi munosabatlarda uni ifoda etmaydigan organlar (masalan, umumiy yig'ilish). Shu asosda, yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan organlar va bunday vakolatga ega bo'lmagan organlar o'rtasida farq qilinadi.

Mazkur tasnifga muvofiq, xohish-irodani shakllantiruvchi organlar tashqi munosabatlarda yuridik shaxs nomidan ish yuritish vakolatiga ega emas, balki faqat xohish-irodani shakllantirish bilan cheklanadi. Bunday organlarga aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi, direktorlar kengashi va kollegial ijro organi kiradi. Xohish-irodani ifoda etuvchi organlar esa uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda yuridik shaxs nomidan chiqish qiluvchi organlardir. Ular o'z vakolatlari doirasida hech qanday ishonchnomasiz faoliyat yuritadi. Bunday organlarga, avvalo, yakka ijro organi misol bo'la oladi.

Biroq bu tasnif shartli bo'lib, ayrim istisnolar mavjud. Masalan, ayrim holatlarda yakka ijro organi ham xohish-irodani shakllantiruvchi, ham uni tashqi munosabatlarda ifoda etuvchi organ sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Deylik, aksiyadorlik jamiyati o'z balans aktivlarining 35 foizini tashkil etuvchi mol-mulkni begonalashtirishga oid yirik bitim tuzmoqchi bo'lsa,

qonunga muvofiq bunday bitimni tuzish haqida qaror qabul qilish vakolati direktorlar kengashiga tegishli bo'ladi. Shundan keyingina yakka ijro organi jamiyat xohish-irodasini tashqi munosabatlarda ifoda etib, mazkur bitimni tuzadi. Agar jamiyat oddiy, ya'ni maxsus rozilik talab qilinmaydigan bitimni tuzmoqchi bo'lsa, bunday holatda yakka ijro organi jamiyatning xohish-irodasini mustaqil ravishda shakllantirib, uni tashqi munosabatlarda ifoda etadi. Bu holda u ikki funksiyani – ham xohish-irodani shakllantirish, ham uni ifoda etish vazifasini bajaradi.

Shuningdek, ba'zi vaziyatlarda, masalan dividend to'lash bo'yicha qaror qabul qilinganda, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ham xohish-irodani ifoda etuvchi organ sifatida namoyon bo'lishi mumkin, chunki bunday to'lovni amalga oshirish uchun oliy organ qarorining o'zi yetarli bo'ladi.

Demak, mazkur tasnif shartli bo'lsa-da, yuridik shaxs organlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning huquqiy tabiatini anglashda muhim ahamiyatga ega va organlar funksiyalarini farqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, tashkil etishning majburiyligiga ko'ra ham organlar tasniflanadi: ayrim boshqaruv organlari har qanday xo'jalik jamiyatida tuzilishi majburiy bo'lsa, boshqalarini tuzish jamiyatning o'z ixtiyoriga bog'liq bo'ladi.

Jamiyat organlarining ayrimlari qonun talablariga ko'ra majburiy ravishda tuziladi. Bunga umumiy yig'ilish, yakka ijro organi va ochiq aksiyadorlik jamiyatidagi direktorlar kengashi kiradi. Jamiyat bu organlarni tuzmaslik masalasida mustaqil qaror qabul qila olmaydi. Shu bilan birga, ayrim organlar fakultativ hisoblanadi, ya'ni ularning mavjudligi jamiyatning xohishiga yoki maxsus qonuniy talablariga bog'liq. Masalan, kollegial ijro organi odatda ixtiyoriy bo'lsa-da, banklarda uni tashkil etish qonunda majburiy qilib belgilangan. Yopiq jamiyatlarda esa direktorlar kengashi fakultativ organdir.

Nazorat qiluvchi organ bo'lgan taftish komissiyasi ham har doim tuzilishi shart emas. Qonunchilikka ko'ra, yopiq korporatsiyalarda komissiyani tashkil etish yoki undan voz kechish huquqi ustavda ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bunga jamiyat tuzilgan paytda yoki ishtirokchilar bir ovozdan qabul qilgan qaror asosida erishiladi. Ochiq jamiyatlarda ham ustavda taftish komissiyasi nazarda tutilmasligi mumkin, bunda qaror aksiyadorlarning malakali ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risidagi qonunga ko'ra, agar ochiq jamiyatda komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, uning qoidolari ustavda belgilanishi shart. Yopiq jamiyatlarda esa ustavda komissiya tuzilishi yoki tuzilmasligi, agar u faqat ma'lum hollarda tashkil etilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, shu hollarning o'zi aniq qayd etilishi lozim. Ochiq jamiyatlarda komissiya tuzmaslik to'g'risidagi qaror malakali ko'pchilik ovoz bilan, yopiq jamiyatlarda esa bunday qaror barcha ishtirokchilarning bir ovozdan roziligi bilan qabul qilinadi.

Xulosa. Shu bilan birga, jamiyat organlarining tarkibi haqidagi ma'lumotlar ustavga majburiy tarzda kiritilishi talab qilinadi. Bunday ma'lumotlarni faqat jamiyat ichki hujjatlarida aks ettirish to'g'ri emas, chunki ular uchinchi shaxslar uchun ham ahamiyatlidir. Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, yakka ijro organi barcha tashkiliy-huquqiy shakldagi yuridik shaxslarda tuzilishi shart bo'lib, xo'jalik jamiyatlarida u umumiy yig'ilish yoki direktorlar kengashiga hisobdor hisoblanadi. Jamiyat ijro organi xo'jalik jamiyatlarida asosan joriy boshqaruv va yuridik shaxs nomidan vakillik qilishni amalga oshiradi. Bunda uning vakolatlari qoldiq prinsip asosida ishlab chiqilgan. Ya'ni jamiyat ishtirokchilar umumiy yig'ilishi yoki direktorlar kengashi (kuzatuv kengashi) vakolatlariga kiritilmagan funksiyalarni bajaradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. А.А. Кузнецов . Пределы автономии воли в корпоративном праве. Краткий очерк. М.: Статут , 2017-52 с.
2. Corporate Liability in Civil Law: monograph / O.V. Gutnikov. М.: The Institute of Legislation and Comparative Law under the Government of the Russian Federation: LAW FIRM CONTRACT, 2019. – 488 p.
3. "Исполнительные органы хозяйственного общества: монография" Шиткина И.С. – "Статут", - 2022. – 8 с.
4. Мейер Д.И. Русское гражданское право: В 2 ч. Ч. 1. – М., - 1997. – С. 126.
5. Черепяхин Б.Б. Органы и представители юридического лица // Труды по гражданскому праву. М., 2001. С. 468
6. Могилевский С.Д., Самойлов И.А. Корпорации в России: правовой статус и основы деятельности: Учеб. пособие. М., 2006. С. 55.
7. "Исполнительные органы хозяйственного общества: монография" Шиткина И.С. – "Статут", - 2022. – 10 с.
8. Корпоративное право: Учебный курс: В 2 т. / Отв. ред. И.С. Шиткина. Т. 2. М., 2018. С. 206

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).